



## FANLARARO INTEGRATSIYA (Odil Yoqubov asarlari misolida)

---

*Musayeva Shahnoza Jalol qizi*  
*Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Ixtiyor Yoqubov*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘quvchilarda fanlararo uzviy tasavvur uyg‘otish, o‘quv dasturlari mazmunining umumiy tahlili, integratsiyalashgan ta’lim asosida tarix va adabiyot fanlarining o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan jihatlarini tushuntiradi. Tarix va adabiyot darsliklarida bir-biriga aloqador mavzularni o‘rganib chiqish va tadqiq qilish orqali beriladigan bilimda yaxlitlikni ta’minlash va o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada fanlararo integratsiyani Odil Yoqubov asarlari misolida ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Tarix, adabiyot, Odil Yoqubov, integratsiya, Samarqand tarixi, yaxlitlash.

Har qanday ta’lim beruvchining maqsadi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z oldiga qo‘yilgan muammoni yechimga, izlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘quvchi qaysi mavzuni o‘rganishidan qat’i nazar beriladigan bilim sifatli va o‘zlashtirish oson bo‘lishi, bilim va ko‘nikmalarini to‘g‘ri to‘g‘ri yo‘naltira olishiga o‘rgatishi lozim. Bunning uchun o‘qituvchida katta bilim, mahorat va ijodkorlik ruhi kerak.

“Integratsiya — bu biz mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, dunyoqarashimizni kengaytirish va o‘quv jarayonini rag‘batlantirish uchun doimo murojaat qiladigan fanlararo aloqalar emas. Integratsiya bu — hosil qilinadigan bilimlarning bir butunga birlashishidir” (Ожегов, 1997, 944 с). o‘qituvchi mavzuni o‘rgatish jarayonida uni boshqa fanlar bilan bog‘lab tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Zehniy fikrlash darajasini oshirish, mantiqiy xotirani mustahkamlash har ikki tomonlama jiddiy yondashuvni talab qiladi. O‘quvchilarda fanni o‘rganish bilan bir qatorda aqliy operatsiyalar: taqqoslash, rad etish, isbotlash, kognitiv qiziqish, fikrlashning moslashuvchanligi va o‘ziga xosligi, fanga ilmiy yondashish yordamida mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilar tomonidan olingan katta hajmdagi ma’lumotlar qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirani o‘z ichiga oladi, bilimlarni tizimlashtiradi, bu esa xotirani tartibga solish va fikrlashning tejamkorlik tamoyiliga rioya qilish imkonini beradi. Integratsiyalashgan dars chegaraviy muammolarni ko‘rib chiqish, ularning ko‘p qirraliligini, ahamiyatini va



turli sohalarda qo'llanilishini ko'rish imkonini beradi (Baratov & Inog'omova & Hikmatova, 2022, 42-bet). Bu jarayonni adabiyot fani orqali Odil Yoqubov asarlari misolida tahlil qilishga harakat qildik.

Odil Yoqubov ijodida o'rin olgan asarlar tarixiy va zamonaviy mavzuda bo'lib, "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo" romanlarida hamda istiqloq yillarida yaratgan "Muzaffar Temur" dramasida tarixiy voqelik, "Diyonat", "Oq qushlar, oppoq qushlar", "Adolat manzili", "Osiy banda" romanlarida esa yaqin o'tmish, turg'unlik yillari voqealari tasvirlangan. Odil Yoqubovga shuhrat keltirgan tarixiy romanlari – "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" asarlaridir. Adabiy tanqidchilikning bahosiga ko'ra, "Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romanining markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirleri, ular yashagan davr turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib dolzarb ma'no bag'ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo'yilmagan. Odil Yoqubov tarixni xuddi ko'rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlariga uzoq o'tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo'ladi. U tarixga bugungi davr nuqtai nazaridan qaraydi". (N.Karimov va boshqalar. XX asr adabiyoti tarixi. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1999 yil, 415-bet)

Badiiy adabiyotda uzoq va yaqin o'tmish voqeligini aks ettiruvchi asarlar mustaqillik yillaridan keyin ancha jonlandi. Tarixiy mavzudagi o'zbek nasri, xususan, romanchilik Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Oybekning "Navoiy", "Qutlug'qon" keyinchalik O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", P.Qodirovning Boburiylar tarixiga doir "Yulduzli tunlar" hamda "Avlodlar dovoni" asarlarida to'la ma'noda o'z aksini topgan. O'zbek adabiyotida ham o'tmish haqida asar yozishda tarixiylik bosh mezon bo'lishi lozimligini, tarix ne-ne avlodlarni kamol toptiradigan ulug' murabbiy ekanligini angladilar. (A.Zayniddinova Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999 yil, 8-bet.)

Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo" romanlarida tarixiy syujet tuzilishining o'ziga xosligi, tarixiy voqelikning badiiy haqiqat uyg'unligida tasvirlash yo'sinining takrorlanmasligi, obrazlar tizimining keng ko'lamligi bilan adabiyotimiz tarixida alohida qimmatga ega. Ulug' olim Mirzo Ulug'bekning bosib o'tgan ibratli hayoti va fojeali taqdiri to'g'risida qator tarixiy, nasriy, she'riy asarlar, dramalar yaratilgan. Bu borada Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojeasi hamda Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanlarini alohida e'tirof etish



o`rinli. Har ikkala asar ham buyuk insonning ma`rifatli hayoti va fojeaviy taqdirini badiiy talqin qilishga qaratilgan. Bu asarlarda Mirzo Ulug`bekning qirq yil taxt tebratgan va qilich qo`ldan tushmagan hukmdorgina emas, yulduzlar bilan til topishgan, O`z qo`li bilan rasadxona yaratib, yulduzlarning joylashish o`rnini belgilab chiqqan, o`nlab fidoyi shogirdlar tayyorlab ilm-fan sohasiga katta hissa qo`shgani, u qilich kuchiga emas, ilm-ma`rifat kuchiga, dunyoni qora kuch emas, go`zallik o`zgartirishi mumkin degan aqidaga rioya qilgan holda mamlakatni boshqargan.

“Ulug`bek xazinasini” 1970- 1973-yillarda yozilgan, 1974 -yilda alohida kitob bo`lib chiqqan edi. Shundan beri asar qayta-qayta chop etildi, jahonning ko`plab tillariga tarjima qilindi, jahon bo`ylab dovrug` qozondi. Shunga qaramay adib roman ustidagi ijodiy ishini davom ettirdi. Davrimizning ulkan adibi Chingiz Aytmatov “Ulug`bek xazinasini” haqida shunday yozadi: “Yaxshi kitob haqida yozish maroqli. Bu yuksak va olijanob proza namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi. Bu esa yaxshi asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shuki, romanni o`qir ekanman, ko`nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg`usi jo`sh urdi. Ulug`bek shunday dahoki, u bizning asrlar osha tariximizga, zaminda tutgan mavqeimizga guvoh. Ulug`bek — bizning dildagi ohimiz, hasratimiz, u buyuk insoniy tajribalar haqida, dunyo haqida yuksak mezonlarda turib mulohaza yurituvchi, hukm-saboqlar uchun asos beradigan shaxs. Ulug`bek men uchun o`rta asrning atoqli olimi bo`lgani uchungina emas, balki xalqlarimiz tarixidagi eng murakkab va og`ir fojiani boshdan kechirgan alloma bo`lgani uchun ham ulug`dir.

Romanning markazida davr haqiqatini butun salobati bilan ochib beruvchi adolatli va ma`rifatparvar shoh Ulug`bek obrazi turadi. Odil Yoqubovning bu romani yozilguniga qadar o`zbek tarixiy romanchiligida voqelikning tarixiy mohiyatini yaxlit holda ifoda eta oluvchi shoh obrazi yaratilmagan edi. Yozuvchi o`z bosh qahramonini tugal va mukammal adabiy tip darajasiga ko`tarishda shohlar olamiga daxldor bo`lgan hayotiy tarixiy haqiqatlarni ochish yo`ldan boradi. Roman ikki qismdan iboratdir. Birinchi qism Ulug`bekning fojiasi bilan tugasa, ikkinchi qism padarkush Abdulatifning fojiasi bilan tugaydi. Ko`rinadiki romanda har biri o`zicha tugal va mukammal bo`lgan ikkita shoh obrazi yaratilgan. “Ular hayotda nimaga intilish lozim, haqiqat nima?”- degan savollarga o`z e`tiqodlari va hayotiy maslagiga tayanib javob beruvchi tarixiy shaxslardir. Shu boisdan ham yozuvchi ularning o`ziga xos adabiy tipini yaratar ekan, badiiy to`qimada hayot haqiqatidan chetga chiqib ketmaslik lozimligiga alohida e`tibor beradi. Chunki, badiiy to`qima asardagi g`oyaviy va hayotiy mazmuni tarixiy-hayotiy materiallarga tayanib qayta



jonlantirishda ham, shuningdek, asarning badiiy shakliga daxldor bo'lgan syujet unsurlari olamining kashf etilishida ham yetakchi mavqeda turadi. Chunki, badiiy asar maishiy turmushning oddiygina ko'chirmasi emas, balki ana shu hayotiy voqelikdan olingan taassurotning adib badiiy niyati asosida "qayta ishlangan" ko'rinishidir. Yozuvchi uchun bosh qahramon faoliyati ko'rsatadigan zamon va voqealar bo'lib o'tadigan makonni belgilab olish badiiy to'qimaning eng mas'uliyatli lahzasidirki, voqelik talqinining zamon va makon belgisi hal qilingach, asarning mazmuni va shakl birligini ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi. O.Yoqubov ham M.Shayxzoda tajribalaridan bahramand bo'lgan. Roman bilan tragediya orasida talay umumiyliklar mavjud. Chunonchi, roman ham xuddi tragediya kabi Ulug'bek hayotining so'nggi davrini hikoya qilishdan boshlanadi, tragediyadagi ko'pgina shaxslar bu yerda ham ishtirok etadilar. Shu bilan barobar "Ulug'bek xazinasi" tarixiy voqealar, shaxslarning badiiy talqini, o'zining usuliy, g'oyaviy-badiiy yo'nalishi jihatidan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidan keskin farq qiladi.

Mirzo Ulug'bek sultonlik taxtidan ketyapti. Shu og'ir, fojiviy daqiqalarda u ko'p narsalar to'g'risida o'ylaydi, murakkab ruhiy holatni boshdan kechiradi. Avvalo u – shaxs, temuriyzoda, toj-taxt taqdiri uchun javobgar shaxs, nima qilib bo'lsa-da u hokimiyatni qo'lda saqlab qolish uchun tirishadi; ammo u riyokor, johil raqiblar qurshovida, o'z o'g'li ular qo'lida qo'g'irchoq, toj-taxt deb otaga qarshi bosh ko'targan. Bu hol buyuk allomani adadsiz qiynoqlar gardobiga tortadi. Ulug'bekda insoniy g'urur juda kuchli. Shohlik qoni jo'sh urib toj-taxt himoyasi uchun o'g'liga qarshi jangga otlanar ekan, nomus tuyg'usi uni qiynoqqa soladi, el-yurt, kelgusi avlodlar oldida bunday nomaqbul ishga qo'l urganligi uchun or qiladi, yomon nom qoldirishdan qo'rqadi.

Adabiyot darsliklariga Odil Yoqubov asarlarini kiritish va darsliklararo kichik integratsiyani shakllantirish borasida: 9-sinf adabiyot darsligida Odil Yoqubov mavzusi berilgan. Mutolaa uchun esa "Ulug'bek xazinasi" romanidan parcha berilgan. 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligida esa bu mavzu yuzasidan berilgan ma'lumot to'rt betga ham bormaydi. Masalan Abdullatifning otasiga qarshi kurashi va Ulug'bekning o'limi darslikda quyidagicha berilgan: "Otasining qiyin ahvolda qolganini kuzatib turgan Abdullatif qulay fursatdan foydalanib, bosh ko'taradi va Amudaryodan kechib o'tib, Termiz, Shahrisabz va Xuzorni osongina zabt etadi. So'ngra Samarqandga qarab yo'l oladi. 1449-yil oktabrda Damashq qishlog'i yaqinida qattiq jang bo'ladi va bu jangda Ulug'bek yengiladi, Samarqand amiri Mironshoh Qavchin shahar darvozalarini berkittirib Ulug'bekni ichkariga kirishga qo'ymaydi. U Shohruxiyaga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo'lishga majbur



bo'ladi. Shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramasdan, Abdullatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o'ldirilishini uyushtiradi. 1449-yil Mirzo Ulug'bek 55 yoshida fojiali halok bo'ladi". (Rasuljon Nafasov va boshqa. 7-sinf O'zbekiston tarixi)

7-sinf O'zbekiston tarixi darsligi 5-bobi Amir Temur va Temuriylar davri tarixi mavzularini qamrab oladi. Darslik Temuriylar sulolasi yuksalishi, markaziy hokimyatning zaiflashuvi, davlat boshqaruvi, harbiy ish, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, siyosat, madaniy hayot kabi bir qator mavzulardan iborat. Holbuki, Temuriylar mavzusi 40 betlik ma'ruzalarni o'z ichiga oladi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanini o'qib tahlil qilish jarayonida Movarounnahr siyosati, iqtisodi, ma'naviy-ma'rifiy qiyofasi yaqqol ochib tashlanganligi ko'zga tashlanadi. Ammo ko'p sonli o'quvchilar bunday asarlar borligidan ham xabardor emas. Globallashuv davrida yosh avlodni aynan adabiyot va tarixga qiziqtirish, ularning bu fanlarga qanchalik ehtiyojmand ekanliklari tushuntirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, O'qituvchi dars o'tish barobarida barcha fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligini, tarixni yetarlicha anglamasdan iqtisodni, siyosatni, dunyo va jamiyatni anglab bo'lmasligini tushuntirishi kerak. Buning uchun maktab darsliklaridagi mavzular ayni sinfda yoki bir-biriga yaqin sinflarda berilishi lozim. O'qituvchi fanlararo integratsiya asosida dars o'tishi uchun darsliklarning tuzilishi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, Temuriylar davri tarixi 7-sinf darsligida berilgan. Odil Yoqubov hayoti va Ulug'bek xazinasi romani 9-sinf darsligidan o'rin olgan. Xotira imkoniyatlarini e'tiborga oladigan bo'lsak 7-sinfda o'rganilgan mavzu 9-sinfga kelib anchagina unitilgan bo'ladi. Bu o'z-o'zidan mavzular uzviyligini xotirada shakllantirishga, saqlab qolishga to'siq bo'ladi. Maktab darsliklarini ancha e'tibor bilan ishlash, har tomonlama mukammal bilim berishga intilish bilan bir qatorda o'quvchilarning o'zlashtirish salohiyati ham hisobga olinishi zarur. Maktab darsliklarida mavzularning uzviy bog'liqligi shakllantirilsa: davr, shaxs nuqtayi nazaridan bir-birini to'ldiruvchi mavzular berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Baratov D.Inog'omova M.Hikmatova Fanlararo integratsiya tushunchasi va ta'lim jarayonidagi o'rni Toshkent, 2022-yil

<https://zenodo.org/record/7316297#.Y3f-2HZBzIU.3>

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAA&citation\\_for\\_view=3bpt6QUAAA:W7OEmFMy1HYC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAA&citation_for_view=3bpt6QUAAA:W7OEmFMy1HYC)



2. N.Karimov va boshqalar. XX asr adabiyoti tarixi. Toshkent, “O’qituvchi” nashriyoti, 1999-yil, 415 bet.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAAJ&citation\\_for\\_view=3bpt6QUAAAAAJ:YsMSGLbcyi4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAAJ&citation_for_view=3bpt6QUAAAAAJ:YsMSGLbcyi4C)

3. Zayniddinova A. Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999-yil.

4. Rasuljon Nafasov va boshqalar. O‘zbekiston tarixi 7-sinf uchun darlik darslik. Toshkent, “Sharq” 2017-yil.

5. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Adabiyot 9-sinf uchun darlik. 1-qism, Toshkent, “Yangi poligraf servis” 2014-yil, 200 bet.